

Texnologik mashina va jixozlar (maishiy texnika)



Ta'lim shakli, ta'lim davri:

240 kredit to'planadi, kunduzgi ta'lim shakli, 4 yil o'qiladi

Ta'lim klasifikatori:

Muhandis-mexanik

Ilmiy izlanish qamrovi:

Maishiy texnika

Fakultet:

Kimyoviy moddalar texnologiyasi

Yo'nalish kodi:

60720700

Kafedra mudiri:

Xakimova Gulnoz Nigmanovna, email: tmjk@tkti.uz

O'quv dasturining maqsad(lar)i:

Mehnat bozori talablariga javob beradigan, oliy ma'lumotli, yuqori professional malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan kimyogar-texnolog mutaxassislarni (bakalavr va magistr) tayyorlash hisoblanadi.

Professional faoliyatga kirish:

bakalavriat ta'lim yo'nalishi –“O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi” korxonalari bilan o'zaro mustahkam aloqalar o'rnatilgan bo'lib, korxonalarda mavjud muammolarga yechim toppish maqsadida ilmiy yo'nalishlar olib borilmoqda. Magistratura talabalariga korxonlardagi mavjud muammolarga asoslangan dissertatsiya mavzulari berilgan, ular asosan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasida qo'llaniladigan jixoz va qurilmalarni takomillashtirishga va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Texnologik mashina va jixozlar (maishiy texnika)



1-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	DIN1104	Dinshunoslik	4
	UNK1108	Umumiy va noorganik kimyo	4
	XT1108	Xorijiy til	4
	FIZ1108	Fizika	4
	OM1108	Oliy matematika	4
	MKG1106	Muhandislik va kompyuter grafikasi	6
	MKM2304	Materialshunoslik va konstruktsion materiallar texnologiyasi	4

3-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	MS2404	Metrologiya va standartlashtirish	4
	MD2404	Mashina detallari	6
	NM2306	Nazariy mexanika	6
	EEA2306	Elektrotexnika va elektronika asoslari	6
	MQ2304	Materiallar qarshiligi	4
	KTTA2310	Kimyoviy va texnik termodinamika asoslari	4

2-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	4
	UNK1108	Umumiy va noorganik kimyo	4
	XT1108	Xorijiy til	4
	FIZ1108	Fizika	4
	OM1108	Oliy matematika	4
	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	4
	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	6

4-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	MMN2404	Mashina va mexanizmlar nazariyasi	4
	KTM2404	Ko'tarish-tashish mashinalari	4
	KTTA2310	Kimyoviy va texnik termodinamika asoslari	6
	IFTN2406	Maishiy texnika elektr motorlari va elektr qizdirish	6
	MTEM2406	Maishiy texnikada issiqlik almashinish qurilma va agregatlari	6

Texnologik mashina va jixozlar (maishiy texnika)



5-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	FAL3504	Falsafa	4
	MTQD3504	Maishiy texnika va qurilmalar dizayni	4
	ATJQ3510	Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar	4
	Tanlov fanlar		
	CCC3504/	CAD/CAM/CAE/	4
	MM3504	Mathcad, matlab	4
	HK3504/	Havoni konditsiyalash/	4
	SIHQ3504	Sun'iy iqlim hosil qilish	4
	TMJ3504/	Texnologik mashina va jihozlar/	4
	GIDR3504	Gidravlika	4
	YJIT3504/	Yig'ish jarayonlarini jihozlari va texnologiyasi/	4
	MSHJ3504	Materiallarga sovuq holda ishlov berish uchun jihozlar va texnologiyalar	4
	YO'RK3502	Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	2

7-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	SIM4704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	4
	IChJM4706	Ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va avtomatlashtirish	6
	Tanlov fanlar		
	TGQI4706/	Sun'iy sovuqlik iste'molchilari/	6
	SQ4706	Sovuqlikni qo'llanishi	6
	IChHT4706	Ishlab chiqarish hamda texnologik jarayonlarni loyihalash/	6
	AYQL4706	Asosiy va yordamchi qurilmalarni loyihlash	4
	STMA4704/	Sovutish texikasi mashinasozligi asoslari/	4
	MTA4704	Mashinasozlik texnologiyasi asoslari	4
	MTT4704/	Maishiy texnikani ta'mirlash/	4
	MP4704	Mashinalar puxtaligi	4

6-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	EKA3504	Ekologiya	4
	ATJQ3510	Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar	6
	ATJQ3501	Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar 2 (kurs loyihasi)	1
	SA4706	Sovutish asoslari	6
	Tanlov fanlar		
	MUHP3602/	Muhandislik psixologiyasi/	2
	UP3602	Umumiy pedagogika	5
	FM3605/	Fuqaro muhofazasi/	5
	KHO'T3605	Korxonalar hujjatlarini o'zbek tilida yuritish	5

8-semestr	Fan kodi	Fan nomi	Kredit miqdori
	XFX4704	Hayot faoliyati havfsizligii	4
	SM4805	Sovutish mashinalari	5
	SM4801	Sovutish mashinalari (kurs loyiha)	1
	MTKH4806	Maishiy texnikani korroziyadan himoya qilish	6
	Tanlov fanlar		
	MTQH4804/	Maishiy texnika qurilmalarini hisoblash/	4
	MYL4804	Maishiy texnikani loyihalash	4

Texnologik mashina va jixozlar (maishiy texnika)



O'rganish natijalari:

Bilim va tushunchalar

- A1** Texnologik mashina va jihozlar (kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika) sohasiga oid nazariy, amaliy, ilmiy matematika, fizika, Muhandislik va kompyuter grafikasi, texnik tizimlarda axborot texnologiyalari, kimyo sanoati mashina va jihozlari va mashinasozlik texnologiyasi tamoyillarini tushuntira oladi;
- A2** Kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sanoatida qo'llaniladigan mexanik jarayonlarni, gidromexanik, issiqlik va modda almashinish jarayonlari tavsiflay oladi, texnologik mashinalari va jihozlari, ularni texnologik hisobi va loyihasini amalga oshirish, konstruksiyalash, ishlab chiqarish, montaj qilish, ta'mirlash ishlarini tashkil etish va qo'llashni tushuntira oladi;
- A3** Texnologik mashina va jihozlarning nazariy va amaliy asoslari va tushunchalarini tushuntira oladi, kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sohasiga oid qurilmalarga texnik xizmat ko'rsatish va qurilmalarni ta'mirlash tizimlarni tushuna oladi, korxonadagi avariya holatlarini bartaraf etish rejasini tuzishni biladi, Ishlab chiqarish texnologiyasini asosini barqaror rivojlanishi tushunchalarini tavsiflay oladi;
- A4** Texnologik mashina va jihozlarning asosiy nazariy jihatlarini va tushunchalarini tavsiflay oladi va kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sanoatida qo'llaniladigan qurilmalarni ishlab chiqarish malakasiga ega;
- A5** Texnologik mashina va jihozlarning boshqa fanlar (mashina detallari, mashina va mexanizmlar nazariyasi, mashinasozlik texnologiyasi, asosiy texnologik jarayon va qurilmalar, sovitish texnikasining nazariy asoslari) bilan aloqasini tushuntira oladi;
- A6** CAD/CAM/CAE dasturini tushuntira oladi va sanoat qurilmalarini loyihalashda ushbu dasturdan foydalana va qo'llay oladi; kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika ishlab chiqarish jarayonlarini tushuntira oladi.

Texnologik tahlil

- B1** Texnologik jarayonlarni tahlil qilish va baholash, eksperimental, analitik va raqamli usullarni qo'llash, ishlab chiqarish sexdagi qurilmalarni ishlatish va ish vaqtini belgilashni tushuntirish qobiliyatiga ega;
- B2** Muhandislik muammolarni aniqlash, shakllantirish va hal qila oladi, o'z bilim va tushunchalarini muhandislik-mexanik tahliliga qo'llay oladi, kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sanoati qurilma va jihozlarni tanlash, mashina detallari zagotovkasiga dastgoxlarda ishlov berish, texnologik jarayonlarni loyihalash asoslari va mashinalarni yig'ish texnologiyasini va texnologik jarayonlar ketma-ketligi bosqichlarini tushuna oladi;
- B3** Xavfsizlik talablari va texnologiyalarning inson salomatligiga ta'sirini hisobga olish, muxandislikda tegishli tahliliy va modellashtirish usullarini tanlash va qo'llash, texnologik parametrlar va jihozlarni tanlash, texnologik jarayonlarda modellashtirishni qo'llash qobiliyatlariga ega;
- B4** Qurilmalar buzilganda, ishlab chiqarish jarohatida, ularni sababini tahlil qilishda va bartaraf etish, qurilmalar ekspluatatsiyasi bo'yicha yangi standartlar ishlab chiqish va tadbqiq etish bosqichlarini tushuna oladi;

Texnologik dizayn

- C1** Ixtirochilik asoslari, atrof muhitni muhofaza qilish, mehnat muhofazasi va yong'in xavfsizligi qoidalari talablarga javob beradigan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda muxandislik bilim va tushunchalarini qo'llay oladi va tahlilini amalga oshira oladi;
- C2** Texnologiyani loyihalash metodologiyasini tushuntira oladi, ularni texnologik jarayonlarni loyihalashda, jarayonlarni raqamlashtirishda muhandislik va sanoat uskunalarni tanlashda qo'llay oladi;

Tadqiqot

- D1** Respublika va xorijda chop etilgan kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sanoati jarayonlari va qurilmalariga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalaridan foydalanish, mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi;
- D2** Texnik vositalar, tizimlar, jarayonlar, qurilmalar va yangi turdagi kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sanoati mashina va qurilmalari tarkibi va texnologiyasini amaliyotga tatbiq etish, mashinalar va avtomatlashtirilgan liniyalarni sinovdan o'tkazish ma'lumotlar bazalarini tushuntira oladi;
- D3** Muxandislik texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ishlab chiqish uchun raqamli modellashtirish usullarini tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega;
- D4** Kerakli tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish, ularning ma'lumotlarini baholash va xulosalar chiqarish; muhandislik sohasidagi aniq muammolarni aniqlash va hal qilish; tegishli analitik asboblarni tanlash, kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sanoati uskunalaridan foydalanish qobiliyatiga ega.
- D5** Qurilmalar ekspluatatsiyasi bo'yicha yangi standartlar ishlab chiqish va tadbqiq etish, ratsionalizatorlik va ixtiro bo'yicha tushunchalarni qo'llay oladi;

Amaliy tadbirlar

- E1** Texnologik jarayonlarning laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalarni tanlash, qo'llash va boshqarish, muxandislik tahlilini amalga oshirish;
- E2** Muhandislik va texnologik muammolarni hal qilishda nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish, sanoat qurilmalarini ishlab chiqarishda materiallarni tanlash, kimyo, oziq-ovqat sanoati va maishiy texnika sanoati mahsulotlarning texnologik liniyalarni loyihalash qobiliyatiga ega bo'ladi;
- E3** Meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladi, qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan javobgar bo'lish va tashkiliy va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni tushuntira oladi;
- E4** Muxandislik faoliyatni tashkil etish tamoyillarini, mehnatni muhofaza qilishning ahamiyati va asosiy talablarini, shuningdek, texnologik jarayon va biznes muhitining o'zaro ta'sirini tushuntira oladi.

Texnologik mashina va jixozlar (kimyo sanoati)



O'rganish natijalari

Shaxsiy ko'nikmalar

- F1** Tashkilotlarning operatsion (ishlab chiqarish) faoliyatini boshqarishda qarorlar qabul qilish va jamoada samarali ishlash qobiliyatiga ega;
- F2** Xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, texnik fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida keng jamoatchilik bilan muloqat qila oladi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida muxandislik tushunchalarini tushuntirish qobiliyatiga ega;
- F3** Texnologik va muhandislik yechimlarining jamiyat va atrof-muhitga ta'sirini tushuntira oladi, kasbiy etika va texnologik muhandislik faoliyati normalariga rioya qiladi, muxandislik faoliyat uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo'ladi;
- F4** Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish qobiliyatiga ega;
- F5** Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi qobiliyatiga ega;
- F6** Tadbirkorlik qobiliyatlari, turli sanoat korxonalarini boshqarish, rivojlanish xususiyatlarini tushuntira oladi;
- F7** Mustaqil, uzluksiz ta'lim bilan shug'ullanish, texnologik taraqqiyot bilan birga takomillashish qobiliyatiga ega.

